

## “TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori  
A.S.Yuldashev

2017 y.



### “Abituriyentlar arizasini elektron qabul qilish (magistratura) interaktiv xizmati reglamenti

#### 1. Xizmat tarifi

##### 1.1. Xizmat (pasporti) nomlanishi:

Qisqa nomi: Abituriyentlar arizasini elektron qabul qilish (magistratura)

Kengaytirilgan nomi: Oliy ta'lim muassasa (ADU) rasmiy sayti orqali “ Oliy muassasalariga xujjat topshirish istagini bildirgan abituriyentlar arizasini elektron shaklda qabul qilish (magistratura).

##### 1.2. Xizmat natijasi:

Arizachini magistraturaga kirish uchun ariza qabul qilinganligi haqida xabardor qilish.

##### 1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar:

Andijon davlat universiteti

##### 1.4. Huquqiy asoslari:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 393-sonli qarori;

##### 1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Bakalavr bosqichini tamomlagan talabalar.

##### 1.6. Ariza berish muddatlari:

Talabalardan arizalar qabul qilish belgilangan muddatda amalga oshiriladi

##### 1.7. Bajarish muddatlari:

Magistraturaga kirish uchun topshirilishi lozim bo'lgan xujjatlar kelib tushgan paytdan boshlab 1-3 ish kuni ichida ko'rib chiqilib, javob beriladi.  
Murojaat dam olish kunlari yoki bayram kunlari kelib tushgan taqdirda ularni ko'rib chiqish keyingi ish kunidan boshlanadi.

#### 2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etish

##### 2.1. Ma'lumot tarkibi va xajmi:

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday foydalanuvchiga quyidagi axborot taqdim etiladi:

- xizmat ko'rsatuvchi organning joylashgan joyi, ish tartibi, murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi haqidagi ma'lumot;
- tanlangan oliy ta'lim muassasasidagi turdosh ta'lim yo'nalishlari;
- xizmatdan foydalanish uchun talab etiladigan xujjatlar ro'yhati;
- ariza blankasini to'ldirish tartibi haqida ma'lumot;
- xizmatdan foydalanish muddatlari.

##### 2.2. Batafsil ma'lumot olish:

Andijon davlat universiteti rasmiy web sayti orqali

##### 2.3. Xizmat ko'rsatish manzili haqida ma'lumot olish:

Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129 uy

#### 3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

##### 3.1. Ish vaqtlari:

Xizmat ko'rsatuvchining ish vaqti dushanba-shanba kuni soat 9<sup>00</sup> dan 17<sup>00</sup> ga qadar.

##### 3.2. Kutish shartlari:

1 - 3 kun

#### 4. Xizmat ko'rsatish tartibi

##### 4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar:

Quyidagi xujjatlar to'ldirilgan maxsus ariza shakliga elektron (skanerlangan) shaklda ilova qilinadi:

- bakalavr diplomi ("Oliy ma'lumot haqidagi diplomni tasdiqlash" tizimi bilan integratsiya ta'minlashda diplomning seriyasi va raqami kiritiladi).
- chop etilgan ilmiy maqola yoki tezislari (yoki ularga tenglashtirilgan xujjatlari (mavjud bo'lsa)).
- 3.5 x 4.5 xajmdagi rangli fotosurat;
- №086 shakldagi tibbiy ma'lumotnoma (Sog'liqni saqlash vazirligi tizimi bilan integratsiya ta'minlanganda, ma'lumotnoma raqami kiritiladi.);
- Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion saqami (PINFL);
- ERI (Elektron raqamli imzo)

#### 4.2. Xizmat to'lovi:

Bepul

#### 4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy web saytiga kiritiladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Abituriyentlar arizasini elektron qabul qilish" (Magistratura) xizmati tanlanadi;
3. Ariza shakli to'ldiriladi va xujjatlarning elektron nusxasi ilova qilinadi;
4. Mutaxassislik tanlanadi.
5. Arizachining shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) kiritiladi;
6. Ariza to'g'ri to'ldirilganligi tasdiqlanadi. "ERI bilan yuborish" funksiyasi tanlanadi va ariza yuboriladi.

#### 4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:


1. Mas'ul xodim tomonidan murojaat qiluvchiga ariza qabul qilinganligi to'g'risidagi xabar yuboriladi.
2. Arizaga rad javobi berilsa, rad etish uchun asoslar murojaat qiluvchiga yuboriladi.
3. Arizachi xujjatlarning asl nusxasini elektron ariza qabul qilganidan keyin 5 kun ichida Andijon davlat universitetining qabul komissiyasiga topshirishi shart.

#### 4.5. Rad etish sabablari:

Andijon davlat universitetining qabul komissiyasi tomonidan Bakalavr darajasi yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bolgan shaxslar turdosh ta'lim yo'nalishlari ro'yxatidagi ixtisosliklarga mos kelmasligi aniqlansa yoki talab etilgan xujjatlarning to'liq taqdim etilmaganligi sababli rad etilishi mumkin.


**"KIRITILDI"**

Magistratura bo'limi boshlig'i

  
N. Asqarov  
" 01 " " 11 " 2017 y.

**"KELISHILDI"**

Axborot texnologiyalari markazi rahbari

  
v.v.b. N. Mirzaalimov  
" 01 " " 11 " 2017 y.